



## KASB-HUNARGA O'QITISHDA INTERAKTIV O'YIN TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

*Farg'ona shahar 1-sonli politexnikum ta'lim ustasi*

***Ibragimov Shuxratbek Shukurullayevich***

*Farg'ona shahar 1-sonli politexnikum ta'lim ustasi*

***Barziyev Dilshod Sadirdinovich***

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchi-talabalarni kasb-hunarga o'qitishning zamonaviy usullaridan foydalanib, o'qitish jarayonini samarali tashkil etish, kasbiy fanlarni o'qitishda interaktiv o'yinlar bilan ishlashning yutuqlari, interaktiv o'yinlarining didaktik funksiyalari va o'yinlarning tayyorgarlik bosqichlari yoritilgan .

**Kalit so'zlar:** kasb-hunar, interaktiv, noan'anaviy usullar, pedagogik texnologiyalar, faoliyat usullari, hamkorlik, samaradorlik, yo'l-yo'riq, malaka, ko'nikma, baholash mezoni.

Bugungi kunda bir qator rivojlangan mamlakatlarda ta'lim-tarbiya jarayayoninig samaradorligini kafolatlovchi zamonaviy pedagogic texnologiyalarni qo'llash borasida katta tajriba asoslarini tashkil etuvchi metodlar interfaol metodlar nomi bilan yuritilmoqda. Shu o'rinda "Interaktiv" dars metodini "Interfaol" deb chala tarjimasini aytish mazmunan xato ekenligiga e'tiboringizni qaratmoqchimiz. "Interaktiv" so'zi qo'shma so'z bo'lib, "Interaktiv" inglizcha "Interactive" so'zidan olingan bo'lib, "O'zaro harakat va tasirlanish" degan ma'noni anglatadi.



Interaktiv metod biror faoliyat yoki muammoni o'zaro muloqotda, o'zaro baxs-munozarada fikrlash asnosida, hamjihatlik bilan hal etishdir. Bu usulning afzalligi shundaki, butun faoliyat o'quvchi-talabani mustaqil fikrlashga o'rgatib, mustaqil hayotga tayyorlaydi.

Kasb-hunarga o'qitishning interaktiv usullarini tanlashda ta'lim maqsadi, ta'lim oluvchilarning soni va imkoniyatlari, o'quv muassasasining o'quv-moddiy sharoiti, ta'limning davomiyligi, o'qituvchining pedagogic mahorati, ta'lim ustasining amaliy mahorati va boshqalar e'tiborga olinadi.

Interaktiv o'yinlari o'z mazmun-mohiyatiga, ijtimoiy-psihologik va ijtimoiy-pedagogik xususiyatlariga ko'ra, insonning shaxsiy xislatlarini shakllantirishning vositasi hamda iqtisodiy talim tizimida talim-tarbiya ishlarini tashkil etishning bir shaklidir. Zero, interaktiv o'yinlar o'quv va amaliyot jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv va amaliyot jarayonida o'z o'rniga ega va o'quv va amaliyot jarayonining asosiy vazifalari, mohiyati va tuzilmasi hamda o'rganilayotgan kasbning didaktik tabiatiga bog'liq bolgan, aniq belgilangan funksiyalarini bajaradi.

Interaktiv o'yinlarning didaktik funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabalarda aqliy faoliyat usullarining shakllanishi;
- bilim va amaliyotlarni mustaxkamlash va qo'llash;
- o'quv va amaliy jarayonda bo'lg'usi mutaxassisning faoliyati faqat o'rganish emas, balki ishlab chiqishdan iborat bo'lishi;
- o'quvchi-talabalar o'quv va amaliy bilim faoliyatining bo'lg'usi kasbiy faoliyati, xarakteri va tuzilmasiga maksimal darajada yaqinlashib borishi.

Interaktiv o'yinlar ijtimoiy-pedagogik tizim sifatida quyidagi tayyorgarlik bosqichlariga ega:



1. O'qu-bilish vazifalarini muammoli vaziyat topshirig'I shaklida qo'yish:
  - bo'lg'usi interaktiv o'yinining maqsadini aniqlab olish;
  - muammoli vaziyatni anglab yetish;
  - o'quvchi-talabalarga navbatdagi o'yin haqida dastlabki ma'lumotlar berish.

2. Navbatdagi vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan va avval egallangan bilim va ko'nikmalardan foydalanish:

- o'quvchi-talabalarning o'qituvchidan yoki ta'lim ustasidan kasbiga oid adabiyotlarni tahlil qilish orqali yangi bilimlarni qabul qilib olishi;
- bajarilishi lozim bo'lgan ish to'grisida o'quvchi talabalarga yo;l-yo'riqlar ko'rsatish;
- olingan bilim, o'zlashtirilgan ilmiy tushunchalar, ishslash metodlari va ko'nikmalarni umumlashtirish;
- o'z-o'zini nazorat qilish.

3. Interaktiv o'yinlarning shartlarini tushuntirish va vazifani bajarish uchun zarur bo'lgan yangi amaliy bilimlarning axborotini berish.

4. Navbatdagi ishni rejorashtirish:

- avval egallangan bilim va ko'nikmalar asosida tushuntirish ishini olib borish va o'z ijodi uchun zarur bo'lgan yangi metodlarni qidirish.
- rejorashtirishni mustaqil nazorat qilish;

5. Vazifa shartlari, ularning bajarilishini tushuntiruvchi qoidalar(materiallar)ni o'rganish va tahlil qilish bo'yicha mustaqil ishlar va interaktiv o'yinlardagi o'z mavqeini aniqlash.



6.O'zlaridagi bor bilim, malaka va ko'nikmalar asosidagi reja bo'yicha ishlarni bajarish;

-yangi bilim va malakalarni hosil qilish;

-o'z xatti-harakatlari va ularning natijalarini muntazam nazorat qilish. Qayd qilingan kamchiliklar va ularning sabablarini bartaraf qilish;

-belgilangan rejalarini takomillashtirish;

-yakuniy natijalarini tekshirib ko'rish va tahlil qilish;

7. O'quvchi-talabalar faoliyatini, ularning bilim, malakasini, ko'nikmalarini nazorat qilish va joriy yo'l-yo'riqlar berish.

8. O'quvchi-talabalarning interaktiv o'yinlariga tayyorligini aniqlash maqsadida ularning mustaqil ishlari natijalarini tekshirib ko'rish.

9. O'quvchi-talabalarga interaktiv o'yinlarni o'tkazish va unda qatnashish bo'yicha yo'l-yoriqlar berish, zarurat tug'ilganda har biriga qoshimcha yo'l-yoriqlar berish.

10.Oldindan ishlab chiqilgan ssenariy bo'yicha o'quvchi-talabalarning interaktiv o'yinlari.

11. O'yin ishtirokchilariga joriy-yo'riqlar berish.

12. O'yin ishtirokchilariningo'z-o'zini nazorat qilishi.

13.Interaktiv o'yin natijalarini muhokama qilish va o'quvchi-talabalarning o'quv-o'yin, amaliyot-o'yin faoliyatiga baho berish.

Shunday qilib, interaktiv o'yinlardan kasbga oid yangi bilimlarni egallash,o'tilganlarni mustahkamlash,ijodiy qobiliyatini rivojlantirish, umumiy malakani shakllantirish kabi bir qator vazifalarni yechishda foydalilanadi.



**Adabiyotlar:**

- 1.Tolipov.O’, M.Usmonboyeva “Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari”, Toshkent, “Fan”, 2006.
- 2.M.Kamoliddinov,B.Vaxobjonov “Innovatsion pedagogic texnologiya asoslari, savollar,javoblar”, Toshkent-2010.
- 3.M.Klark “Texnologiya obrazovaniya ili pedagogicheskaya texnologiya” jurnal “Perspektivi”-1983.
- 4.K.Ishmatov “Ilg’or pedagogik texnologiyalar”, Namangan-2003.
- 5.N.Saidaxmedov “Yangi pedagogik texnologiyalar”, Toshkent-2003.